

TARIX FANLARINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI MUVAFFAQIYATLI HAL ETISH MASALASI

Qosimova Gulchehraxon Irgashevna.

Qoqon shahar kasb- hunar maktabi tarix fani oqituvchisi.

Annotatsiya: Tarix fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishning murakkab vazifasini muvaffaqiyatli hal etish, uni takomillashtirish faqat pedagogik faoliyatini ob'ektiv har tomonlama tahlil qilish asosida o'qitish va ta'lif jarayonini samarali qurishga asoslangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Kalit so'zlar: tarix fanlarini o'qitish, ta'lif klasteri, mobil-metodik guruhlari, kasbiy faoliyat, iqtidor, kreativlik, tarixga nazar.

Darsda samaradorligni oshirish uchun avvalom bor, o`qituvchining mahorati va ijodkorligi muhim bo`lib, bunda o`qituvchi tomonidan darsning maqsadiga qarab turli vositalardan foydalanishi maqsadga muvofiq.

1. Ta`limning texnik vositalari - o`quv materialini ko`rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; o`quvchilarga o`quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi, o`quv materialini ko`rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o`quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi. Bularغا misol qilib, diaproektr, grafoproektr, doska bloknot, doska stend, flipchart, videofilmlar, yozuv taxtasi va hokazolarni olishimiz mumkin.

2. Yordamchi ta'lif vositalari - grafiklar, chizmalar, namunalar bo`lib, bularغا quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin: model', mulyajlar, grafik, jadval, diagrammalar, namunalar, chizmalar, sxema va boshqalar..

3. O`quv - uslubiy materiallar - o`quv materiallari ya`ni, darslik, xrestomatiya va boshqa o`quv qo`llanmalar yordamida o`zlashtirilgan o`quv materiallарini mustahkamlash uchun mashhlar, yo`riqnomalar, o`quv topshiriqlari yozilgan tarqatmalar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordm beradi.

Misol uchun: Ish varaqasi, eslatma, nazorat varagi'i va matnlar. Bular o`quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi..

Dono xalqimizda "ming marta eshitgandan ko`ra bir marta ko`rgan yaxshi" degan naql bor. O`qituvchining faqatgina og`zaki bayon metodi yordamida dars tashkil etilsa o`quv materialini o`zlashtirish ko`rsatkichi 10% bo`lishi ehtimoldan yiroq emas. Bunday sharoitda dars o'tish samarasi past bo`ladi. Mashg'ulotlarda o`quv materialini ham ko`rgazmali shaklda taqdim etish, shu bilan birga o`quvchilarni amaliy ish jarayonini ham tashkil etilishi maqsadga muvofikdir. Tarix darslarida ta`limning texnika vositalaridan fodalanish darsning samaradorligini oshiradi. Ta`limning texnika

vositalari o`qitish va o`rganish sifatini ko`tarishga o`quvchilarning o`quv materilini qo`ziqib o`rganishga xizmat qiladi.

Tarix o`qitish tajribasiga ko`ra maktabda ta`limning quyidagi texnika voistalaridan foydalanilmoqdi.

1. Oddiy texnika qurilmalari. Xarita o`quv kartinalari ilinadigan, yog`ochdan yoki boshqa materialdan yasalgan siljiydigan oddiy qurilmala, ko`chma sinf doskasi, sinf devoriga ilinib ikki yoqlama ochiladigan doska.

2. Ovozli apparatlar. Proigrovatel (plastinkalar qo`yib ovoz chiqaradigan asbob). Magnitafon, radiopriyomniklar. Maktab tajribasida plastinkalar va magnit lentalari yordamida shuningdek, radiopriyomniklar vositasida o`quvchilarni klassik va boshqa bastakorlarning asarlari bilan tanishtirish borgan sari keng quloch yoymoqda. Chunki, muzikalij ijodiy asarlarga doir maktab kursining madaniy-tarixiy materialini plastinka va lenta yozuvlarisiz ko`rsatib bo`lmaydi. Masalan madaniyatga doir mavzularnio`tganda musiqa asarlarini eshitish darsni maroqli qiladi.

3. Har xil ko`rsatuv asboblari va qo`llanmalar ta`lim texnika vositalarinig uchinchi guruhini tashkil etadi. Ular epidioskop, diapozitivlar, diafilmlar va o`quv kinofilmlaridan iborat. Texnika vositalari bilan ta`minlangan xona asosan quyidagi talablarga javob berishi lozim.

- a) xonani tezda qorong`ilashtirish va tezda yoritish mumkin bo`lsin;
- b) qorong`i vaqtida ham o`quvchilarning yozuv-chizuv ishlarini olib borish, ekran tasvirini daftarga tushirishi, darslik matni bilan ishlashi uchun o`tirgan o`rnlari maxsus lampochlar bilan yoritiladi;
- v) xonada juda katta doska bo`lishi kerakkki, uning bir qismi yozish uchun bo`sh bo`lsin;
- g) xarita va kartinalar ilinadigan maxsus moslama bo`lsin;
- d) zarur texnika vositalari va ularni ko`rsatadigan apparatlar xonada mavjud bo`lishi bilan birga ular tuzuk, ishga yaroqli holda saqlansin;
- e) o`quv kinofilmlari ham ta`limning ko`rgazmali vositalari jumlasidandir.

Kinofil'm o`quvchilar ko`z o`ngida tarixiy voqeanning jonli obrazning ko`rgazmali qilib to`liq harakatda gavdalantiradi.

Tarixiy mavzularga bag`ishlangan badiiy filmlar (masalan «Muz jangi»...) o`zini mazmuni va tarixiy voqealarni jonli qilib ko`rsatish jihatidan tarixiy badiiy asarlarga o`xshab ketadi. Kinofilmlar, aniqla, badiiy filmlar o`quvchilarga emotSIONAL ta`sir ko`rsatish, estetik va ahloqiy tarbiya berish vositasi hamdir. Kinofilmlar bilim olish vaqtini iqtisod qilishga yordam beradi.

O`quvchilar oddiy shiroitda o`qituvchining bayonidan muzey va har xil tarixiy joylarga sayoxatlarda bo`lib soatlar sarf qilib oladigan bilimlarini 10-15 daqiqalik filmlarini ko`rib olishlari mumkin. Xozirgi vaqtida tarix va jamiatshunoslik o`qitishda teleeshittirishning ikki turidan foydalanilmoqda:

- a) sinfda qabul qilish uchun beriladigan ertalabki ko`rsatuvarlar,
 b) o`qishdan tashqari vaqtlardagi teleko`rsatuvarlar o`quvchilar bu eshittirishlarni uyda tomosha qiladi. Uquv teleko`rsatuvlarni qabul qilish uchun matabda oynalarni parta bilan berkitilgan ikkita televizorli maxsus o`rgatish apparatlari muxayyo bo`lgan sinf xonasi bo`lishi zarur.

Darsda uquv teleko`rsatuvlarning ikki xil turi qabul qilinadi.

- a) 15 daqiqalik teleko`rsatuvar.
 b) 30-40 minut davom etadigan yangi materiallarni bayon qilishga bag`ishlangan tematik teledars yoki takrorlash darsi. Teleko`rsatuvgaga yirik olimlarini yozuvchilar tajribali uqituvchilar yuristlarni hamda tarixiy voqealarning ishtirokchilarini jalg etish uquv materiallarini o`rganishning samaradorligini oshiradi. Uqituvchi teleeshittirishni qabul qilishga puxta tayyorgarlik ko`radi. Uqituvchilarining teleko`rsatuvarlar mazmunini puxta o`zlashtirib olishlari uchun uqituvchi ularga eshittirish mazmuni yuzasidan savollar beradi. Yoki boshqa vazifalar beradi. Natijada o`quvchilar ko`rsatishni faol fikrlab o`zlashtiradilar.

Xulosa o`rnida, O`qituvchi teledarsni qabul qilishni suxbat bilan yakunlaydi. Shunday qilib teleekran tarix o`qitishda ko`rsatkichlarning samaradorligini yanada oshirib yubordi. Tarix o`qitish tajribasi teledars g`oyaviy tarbiyaviy va didaktik jihatdan boshqa ko`rgazmali vositalardan ko`ra xiyla afzal ekanligini isbotladi.

Adabiyot:

1. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli prezident farmoni. Toshkent. 8 oktyabr 2019 yil.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 2021. - B. 233.
3. G'afforov Ya.X. Tarix o'qitish metodikasi/. Darslik. Toshkent:-B.285.
4. Davlatov O.G'. Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish: Avtoref. ped.fan.bo'yicha fal.dok. - Toshkent, 2018. - 57 b.
5. Ismailov A.F. Akademik litseylarda tarix fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish: Avtoref. ped.fan.bo'yicha fal.dok. - Toshkent, 2018. - 50 b.